

**JAHON SAVDO TASHKILOTI DOIRASIDA UMUMIY ISTISNOLAR:
SAVDO VA TARIFLAR BO‘YICHA UMUMIY KELISHUV (GATT) XX-
MODDASI ASOSIDA: KAMCHILIKLAR, YUTUQLAR VA O‘ZBEKISTON
QONUNCHILIGI BILAN BIRGALIKDA TAHLILI.**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura bosqichining Xalqaro tijorat
huquqi yo‘nalishi talabasi **Shodmonov Davron Mamatmurod o‘g‘li***

[Tel:+998901240114](tel:+998901240114)

Email: davronshodmonov0114@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola Jahon savdo tashkiloti doirasida umumiy istisnolar, xususan, Savdo va Tariflar bo‘yicha umumiy kelishuv (GATT) XX-moddasi asosida olib borilgan tahlilni taqdim etadi. Maqolada chet el olimlarining fikrlarini, shuningdek, ushbu sohada yuz bergan real misollarni o‘rgansh orqali muammolar tahlil qilinadi, bu orqali GATT XX-moddasining kamchiliklari va yutuqlari chuqur tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekistonning qonunchiligi va xalqaro savdo tizimiga mosligi, shuningdek, mavjud muammolar va ularning yechimi uchun takliflar keltiriladi. Tahlil natijalari, O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida xalqaro savdo va yuridik muhitni yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu maqola, savdo siyosati, xalqaro hamkorlik va qonunchilik sohasida qiziqish bildiruvchi tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lishiga umid qilinmoqda.

Kalit so‘zlar: GATT, GATS, Jahon savdo tashkiloti, istisnolar, tabiiy resurslar, insonlar salomatligi, jamoat axloqi, sun‘iy intellekt, o‘zaro hamkorlik, qamoqxona mehnati, COVID, Yevropa Ittifoqi.

Annotation

This article presents an analysis of general exceptions under the World Trade Organization, specifically Article XX of the General Agreement on Trade and Tariffs (GATT). The article analyzes the problems by studying the opinions of foreign scientists, as well as real examples in this field, through which the shortcomings and achievements of GATT Article XX are analyzed in depth. The article presents the legislation of Uzbekistan and its compatibility with the international trade system, as well as the existing problems and suggestions for their solution. The results of the analysis show the need to improve the international trade and legal environment in the development of the economy of Uzbekistan. It is hoped that this article will be an important resource for researchers interested in trade policy, international cooperation and law.

Keywords: GATT, GATS, World Trade Organization, exceptions, natural resources, human health, public ethics, artificial intelligence, cooperation, prison labor, COVID, European Union.

Аннотация

Общий анализ представлен в статьях Всемирной организации и об общих исключениях, тарифах, торговле и коммерции. В статье проведен анализ проблем путем изучения статей зарубежных ученых, реальных примеров в этой области, посредством которых глубоко анализируются проблемы и достижения ГАТТ 20 века. В статье совместимость Узбекистана с законодательством и международной торговой системой, существующие проблемы и предложения. Анализ показывает необходимость содействия международной торговле и совершенствованию правового регулирования в развитии экономики Узбекистана. Новые исследователи, важные для Ушбы, торговой политики, статей международного сотрудничества и законодательства.

Ключевые слова: ГАТТ, ГАТС, Всемирная торговая организация, исключения, природные ресурсы, здоровье человека, общественная этика, искусственный интеллект, сотрудничество, труд заключенных, COVID, Европейский Союз.

Dunyo davlatlari tarixan va hozirgi kunda o'zaro savdo aloqalarini olib borishgan va olib borishmoqda. Asrlar davomida olib borilgan hamkorlik natijasida, davlatlarga hamkorlik olib borish manfaatli bo'la boshlagan. Ammo, o'zaro yuzaga kelgan muammolarni hal qilish va ularga yechim topish yoki hamkorlikni rivojlantirish uchun o'z standartlari va maqsadiga ega bo'lgan tuzilma kerakligi, taraflar o'rtasida yuzaga kelgan nizolar va kelajak istiqbollaridagi noaniqliklar sababli ayon bo'la boshlagan. Bunday kuchga hamda salohiyatga ega bo'lgan tashkilot sifatida esa Jahon Savdo Tashkiloti (JST) hamkor davlatlar tomonidan yuzaga keldi. Jahon Savdo Tashkiloti (JST) 1995 yilda xalqaro savdoni erkinlashtirish, adolatli va barqaror savdo tizimini yaratish maqsadida tashkil etilgan va u 1948 yildan beri amalda bo'lgan Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) o'rnini egalladi va xalqaro savdoning turli tomonlarini qamrab olish uchun uning ko'lamini kengaytirdi. Natijada, JST ustavi va GATT bir xil ma'noda qo'llanila boshlagan va hozirda ham shu amaliyot davom etmoqda.

JST doirasida tuzilgan savdo bitimlari orqali davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga soladi va xalqaro savdoda yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. JSTni tuzishdan maqsad davlatlar o'rtasidagi savdoni liberallashtirish - davlatlar o'rtasidagi savdoga to'siqlarni kamaytirish va erkin, ochiq savdo tizimini rivojlantirish, diskriminatsiyasiz savdo tizimini yaratish, xalqaro savdo nizolarini tinch yo'l bilan hal qilish, savdoda adolat va tenglikni ta'minlash kabi

masalalarni qamrab oladi. Maqsadlar bilan birga tashkilot o'zining kelajakda bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni ham belgilab olgan bo'lib, ular quyidagilar: davlatlar o'rtasida tuziladigan savdo bitimlarini nazorat qilish, tashkilot a'zolariga texnik ko'mak va maslahatlar berish, rivojlanayotgan mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash va boshqalardan iborat¹. Ammo, JST doirasida qo'llaniladigan barcha qoida va nizomlar ba'zi bir davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy holat va maqsadlariga to'g'ri kelmasligi mumkin. Bunday holatlarda ishtirokchi davlatlar o'zlarining maqsadlariga va qonunchiligiga to'g'ri kelmaydigan qoidalarni hamkorlarning huquqlarga ziyon yetkazmagan holda chetlab o'tishlari mumkin. Bu holatlar esa istisnolar deb ataladi.

Bunday istisnolarga esa, GATT XX-moddasida esa, mamlakatlarning o'z iqtisodi va fuqarolik jamiyatining ijtimoiy holati himoya qilish uchun tegishli holatlarda istisnolar joriy etishi mumkinligi haqida qonun-qodalarni keltirib o'tgan². Unga ko'ra, tomonlar o'zaro shartlar asosida kamsitishsiz, asosli holatlardagina istisnolar joriy qilishlari mumkin. XX-moddaga ko'ra bunday holatlarga aholining axloqini himoya qilish, ekologiya, atrof-muhit, hayvonot va nabotot olami, tarixiy va badiiy boyliklar, arxeologik topilmalar yer osti boyliklaridan ma'lum sohalar va sharoitlarda foydalanish va boshqa holatlar kiritilgan.

GATT XX-moddasidagi umumiy istisnolarnig boshqa ko'rinishdagi istisnolardan farqi, bu istisnolar xavfsizlik istisnolaridan va boshqa turdagi istisnolarda ma'lum bir sohaga ixtisoslashmaganligi bilan farqlanadi.

GATT XX-moddasida umumiy istisnolar sifatida quyidagilar keltirilgan;

- jamoat axloqini himoya qilish uchun zarur;
- inson, hayvon yoki o'simlik hayoti yoki sog'lig'ini himoya qilish uchun zarur;
- qamoqxonona mehnati mahsulotlariga va majburiy mehnatga tegishli;
- tugaydigan tabiiy resurslarni saqlash bilan bog'liq bo'lsa bunday choralar cheklovlar bilan birgalikda ichki ishlab chiqarish yoki iste'molni ta'qiqlash bo'yicha va boshqalar.

Quyida GATT XX-moddasida keltirilib o'tilgan bir qancha istisnolarning JST qonunchiligi asosida o'rganiladi va xalqaro, jumladan O'zbekiston qonunchiligi bilan birgalikda tahlil qilib chiqamiz.

Jamoat axloqini himoya qilish

Dunyo mamlakatlarining deyarli barchasida jamoat axloqi har xil hisoblanadi. Qaysidir mamlakatda taqiqlangan mahsulot yoki xizmatlar boshqa birida erkin harakatiga ruxsat berilgan bo'lishi mumkin. XX-moddaning qoidasi ko'pincha

¹ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI. MUALLIFLAR JAMOASI XALQARO IQTISODIY HUQUQ DARSLIK. TOSHKENT – 2019-186 bet. 26-bet

² GENERAL AGREEMENT ON TARIFFS AND TRADE. Text of The General Agreement. GENEVA, JULY 1986. 37-38-betlar.

pornografiya, qimor o'yinlari bilan bog'liq mahsulotlar, aholi salomatligiga zarar etkazuvchi moddalar va ayrim jamiyatlar uchun haqoratli bo'lishi mumkin bo'lgan madaniy mahsulotlar kabi bahsli tovarlar bilan bog'liq hollarda qo'llaniladi Bunga, onlayn qimor o'ynash, bukmeykerlik xizmatlarini misol qilib olishimiz mumkin. Bu kabi o'yinlar va mahsulotlar aholinining ijtimoiy holatiga ta'sir qilishi, axloqiy jihatdan buzilishiga olib kelishi mumin. Shu holatlardan kelib chiqib ba'zi mamlakatlar shu kabi mahsulotlarning savdosi yoki xizmatlarini GATTning XX-moddasi a bandiga asosan **jamoat axloqini himoya qilish maqsadida** istisno sifatida cheklab yoki taqiqlab qo'yishi mumkin. Bundan tashqari, XX-modda a bandi, shuningdek, ushbu savdo choralari o'zboshimchalik bilan yoki asossiz kamsitish vositasi sifatida ishlatilmasligi kerak. Bu jihat mamlakatlarning proteksionistik siyosat yoki adolatsiz savdo amaliyoti niqobi sifatida ommaviy axloqiy choralarni suiiste'mol qilmasligini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Shuni ta'kidlash kerakki, XX-moddani talqin qilish yoki qo'llash bilan bog'liq nizolar hal qilish uchun Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) yuborilishi mumkin. JST a'zo davlatlar uchun savdo nizolarini hal qilish va savdo choralarinin xalqaro savdo qoidalariga mos kelishini ta'minlash uchun forum yaratadi va panel tegishli xulosasini tomonlarga taqdim etadi. Ushbu holatga misol qilib XX03-yildagi Antigua va Barbuda Amerika Qo'shma Shtatlari keysini olishimiz mumkin³.

Unga ko'ra da'vogar davlat AQSHga murojat qiladi va ba'zi shtatlarning transchegaraviy qimor o'yinlari xizmatlarini olib borishini o'z davlati hududida cheklaydi. Bunga javoban esa AQSh ushbu harakatlar Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh kelishuv GATS jamoat axloqi bandiga to'g'ri kelishini va GATT va aloqasi yo'qligini aytadi. Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuvda (GATT) deyarli o'xshash shaklda mavjud bo'lgan ushbu band JSTning savdoni liberallashtirish normasidan bir nechta umumiy istisnolardan biridir. Boshqa istisnolar insonlar, hayvonlar va o'simliklar hayoti va sog'lig'ini hamda tugaydigan tabiiy resurslarni himoya qilish choralariga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu qoidalar davlatlarga savdoni liberallashtirish bo'yicha umumiy majburiyatlarga qaramay, qonuniy davlat siyosati maqsadlariga xizmat qilish uchun savdoni cheklovchi tartibga solish choralarini qo'llash imkonini beradi⁴.

Bundan kelib chiqadiki ushbu band umumiy hisoblanib xizmatlar savdosiga ham GATT doirasida qo'llanishi mumkin. Chunki, ushbu muammoli vaziyatda xizmatlar savdosi hisoblangan qimor o'yinlari mamlakatdagi aholining axloqiga ham ta'sir qilishi mumkin. Bunday davlatlarga yana misol qilib ko'plab arab davlatlari va

³ DS285: United States — Measures Affecting the Cross-Border Supply of Gambling and Betting Services
https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/cases_e/ds285_e.htm

⁴ JEREMY C. MARWELL* 2006 may. 804. New York university law review. 81 N.Y.U. L. Rev. 802 (2006). Trade and Morality: The WTO Public Morals Exception after Gambling
<https://heinonline.org/HOL/LandingPage?handle=hein.journals/nylr81&div=30&id=&page=>

O‘zbekistonni keltirsak bo‘ladi. Jumladan, O‘zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksi 278-moddasi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 191-moddalarida qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarda ishtirok etish taqiqlangan va mamlakat hududida elektron qimor o‘yin uskunalari savdosi ham taqiqlangan. Buning asosiy sababi sifatida, O‘zbekistonda qimor o‘ynash natijasida jinoyatchilik va o‘z joniga qasd qilish holatlari ko‘payayotganini keltirishimiz mumkin. Va bu o‘yinlar natijasida fuqarolarning axloqiga salbiy ta‘siri natijasida mamlakatimizda shu kabi o‘yinlar taqiqlanganini keltirishimiz asosli bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, GATTning XX-moddasi a bandi a'zo mamlakatlarga savdo choralarini jamoat axloqi asosida, lekin ma'lum cheklovlar doirasida qo'llash imkoniyatini beradi. U turli madaniy qadriyatlarni hurmat qilish va xalqaro savdoda adolat va kamsitilmaslikni ta'minlash o'rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan

Inson, hayvon yoki o‘simlik hayoti yoki sog‘lig‘ini himoya qilish;

Ba‘zi holatlarda davlatlar o‘z davlati hududidagi insoniyat, hayvonot, o‘simliklarning hayotini saqlab qolish va atrof muhitni himoya qilish uchun ham istisno tariqasida ushbu sohalarga ta‘sir qiluvchi harakat va savdolarga cheklovlar kiritishi mumkin va bu cheklovlar zaruriyat yuzasidan amalga oshirilishi va qasddan nohalol harakatlar asosida amalga oshirilmasligi lozim⁵. **Bu kabi qoidalar GATT ning XX-modda b bandida belgilab qo‘yilgan.** Bunday holatlar yuzaga kelganda yoki yuzaga kelish havfi mavjud bo‘lganda eksport qiluvchi yoki import qilinuvchi davlat asoslar bilan isbotlagan holatda tegishli cheklovlarni belgilashi mumkin bo‘ladi.

Bunday holatlarga kamayib ketayotgan yoki yo‘qolib ketishi havfi mavjud hayvonlar yoki o‘simliklar savdosini taqiqlash, davlat hududida ma‘lum bir mahsulot insonlarning salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi yoki o‘lja mahsulot atrof muhitning ifloslanishiga sabab bo‘lg‘an holatlarda, shu dalillarni isbotlagan hollarda davlatlar o‘z cheklovlarini o‘rnatishi mumkin.

XX(b)-moddaning asosiy maqsadi erkin savdo va insonlar, hayvonlar va o‘simliklarning hayoti yoki sog‘lig‘ini himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashdan iborat. Diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik: XX(b)-modda ma‘lum savdo cheklovlariga ruxsat bergan bo‘lsa-da, u shuningdek, bunday choralar har qanday JST a‘zosiga nisbatan o‘zboshimchalik bilan yoki asossiz ravishda kamsitadigan tarzda qo‘llanilmasligi kerakligini ta‘kidlaydi. JSTning nizolarni hal qilish tartib-qoidalariga muvofiq diskriminatsiyaga qarshi chiqish mumkin. Bunday holatlarda, davlatlar panel qarorlariga hurmat bilan yondashishi va unga amal qilishini ta‘minlashi lozim. JST a‘zolari JSTni XX(b)-moddaga muvofiq ko‘rilgan har qanday chora-tadbirlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilishlari shart, bunda xavf, ilmiy asoslar, choralar

⁵ THE LAW AND POLICY OF THE WORLD TRADE ORGANIZATION. Text, Cases and Materials Peter Van den Bossche, Werner Zdouc. 1109.

qanday qo'llanilishi va boshqa tegishli ma'lumotlar haqida batafsil tafsilotlar taqdim etiladi.

Bunga misol qilib, 2007-yilgi Braziliya- Qoplangan shinalar mavzusida ko'rib chiqamiz.

Unga ko'ra, Braziliya qoplangan shinalarni import qilgan. Import qilingan shinalar keyinchalik atrof muhitga va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsata boshlagan. Braziliyaliklarning e'tirofiga binoan quyidagi salbiy ta'sirlar ko'rsatgan;

- Chiqindi shinalarning yig'ilishi natijasida dang va sariq isitma kasalliklar kabi chivindan yuqadigan kasalliklar havfini oshirgan.
- Shuningdek, shinalarning yig'ilishi yong'in xavfini ko'paytirgan
- Pashsha orqali yuqadigan kasalliklar hayvonlarning sog'lig'iga ham xavf tug'dirgan.
- Shinalar yong'inlari hayvonlar va o'simliklarning hayoti va sog'lig'iga, xavfli moddalarga zarar etkazgan.
- Shinalar yong'inlari chiqaradigan zaharli qo'shimchalar tarkibidagi moddalar nafaqat tabiatga, odamlarga shuningdek, hayvonlarga ham zarar yetkazgan⁶.

Ushbu, sabablarni ko'rib chiqib panel, Braziliyaning panelga yo'llagan shikoyati to'g'ri deb topiladi va XX-moddaning b bandini qamrab oladigan inson, atrof-muhit, hayvonot olamining havfsizligini ta'minlaydigan siyosatni qamrab olishini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi vaziyatda birgina shina importi Braziliyaning ko'plab sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, uning ushbu mahsulotning importiga istisno tariqasida cheklov o'rnatishiga asos bo'la oladi.

Umuman olganda, GATTning **XX(b)** moddasi JST a'zolariga insonlar, hayvonlar yoki o'simliklarning hayoti yoki sog'lig'ini himoya qilish uchun zarur choralarini ko'rishlari uchun, garchi bu choralar vaqtinchalik savdo cheklovlariga olib kelgan bo'lsa ham, qonuniy asos yaratadi. Unda ilmiy dalillar, kamsitilmaslik, mutanosiblik, shaffoflik va bunday choralar proteksionistik maqsadlarda suiiste'mol qilinmasligini ta'minlash uchun xabar berish muhimligini ta'kidlaydi.

Qamoqxona mehnati mahsulotlariga va majburiy mehnatga tegishli.

GATT XX(e)-modda a'zo davlatlarga savdoni qamoqxona mehnati mahsulotlariga taalluqli import mahsulotlarini cheklovchi choralar ko'rish huquqini taklif qiladi. Bundan kelib chiqadiki, XX(e) moddasi JST uchun qamoqxona yoki majburiy mehnat mahsuli bo'lgan mahsulotlar importini cheklashga qonuniy asos

⁶ DS332: Brazil — Measures Affecting Imports of Retreaded Tyres.
https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/cases_e/ds332_e.htm

bo'lib xizmat qiladi⁷. Ushbu qism qamoqxona mehnati mahsulotlari va majburiy mehnatga tegishli istisnolarni o'z ichiga oladi. Bu istisnolar, asosan, davlatlarning o'z ichidagi inson huquqlarini himoya qilish maqsadida kiritilgan.

Majburiy mehnat istisnolari esa, davlatlar o'rtasida majburiy mehnatga asoslangan mahsulotlarni savdoda qatnashmaslikni nazarda tutadi. Bu istisnolar orqali, davlatlar inson huquqlarini himoya qilish va majburiy mehnatga qarshi kurashish maqsadida savdo siyosatini yuritishi mumkin.

Ushbu cheklovning kiritilishi majburiy mehnat sharoitida harakat qilayotgan mahkumlarning insoniy huquqlarini himoya qilishga katta urg'u berildi. 2015 yilda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha global tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashni boshladi. Bu tashabbus GATT XX-moddasiga tayangan holda, qamoqxona mehnatini o'z ichiga olgan mahsulotlarni savdodan chiqarish va bunday sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan. BU harakat bo'yicha tashkilotning maxsus protokoli qabul qilingan bo'lib, protokol Dominika, Malayziya, Mavritaniya, Nepal, Niger, Peru va O'zbekistondagi holatlarga barham berishga qaratilgan⁸.

Yuqorida keltirilgan sohani rivojlantirishga bo'lgan harakatlarga qaramasdan, mahkumlar mehnati mahsuli bo'lgan mahsulotlar savdosini amalga oshirgan va qoidalarni buzgan a'zo mamlakatlar ham mavjud. Jumladan, 1998-yilda Myanmarning harbiy kuchlari tomonidan mahalliy musulmon dehqonlarni qamoq bilan qo'rqitib, mehnatga jalb qilish holatlari uchragan⁹.

O'zbekiston qonunchiligida ham majburiy mehnatga ta'qiqlanishi tegishli hujjatlarda keltirilib o'tilgan. Mehnat kodeksining 5-moddasida mamlakatda majburiy mehnatga yo'l qo'yilmasligi va ta'qiqlanishi belgilab o'tilgan. Majburiy mehnatning aksariyat qismi qamoqxonalarda mahkumlarga nisbatan qo'llanishini olsak, O'zbekistondagi jazoni o'tash manzilgohlarida ham majburiy mehnat olib borishga yo'l qo'yilmasligini anglashimiz mumkin.

Ushbu yo'nalishdagi holat va muammolarni tahlil qilib, undagi nazorat va yurisdiksiya muammolari, iqtisodiy nizolar mavjudligi sababli, kamchiliklar kuzatilmoqda. Bu kamchiliklarni qamoqxon mehnati va majburiy mehnatni zamonga moslagan holda hal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunga misol qilib, a'zo davlatlarning roziligi bilan davlatlardagi qamoqxonalarda mahbuslarning o'z ixtiyori

⁷ Journal of Arts & Humanities. How Could Prison Products Come into the International Market? Analysis of the Consistency between WTO and ILO Rules Xixue Shang, Guido Van Limberghen 72.

⁸ International Labour Organization. From Protocol to Practice: A Bridge to Global Action on Forced Labour (Bridge Project) <https://www.ilo.org/projects-and-partnerships/projects/protocol-practice-bridge-global-action-forced-labour-bridge-project>

⁹ A global alliance against forced labour REPORT OF THE DIRECTOR-GENERAL Global Report under the Follow-up to the ILO Declaration on Fundamental Principles and Rights at Work 2005 INTERNATIONAL LABOUR CONFERENCE 93rd Session 2005 Report I (B) INTERNATIONAL LABOUR OFFICE GENEVA 2005. Page 25.

bilan moddiy manfaat asosida ishlashga ruxsat berishishlari va bu jarayon tashkilot tomonidan ham nazorat qilinishi mumkin.

Tugaydigan tabiiy resurslarni saqlashga taalluqli, agar bunday choralar mahalliy ishlab chiqarish yoki iste'molni cheklash bilan birgalikda kuchga kirishi:

GATT XX-moddaning g bandida ham xalqaro savdoda istisnolarga olib keluvchi sabablar va tovarlar turlari keltirilib o'tilgan. Bu tovarlar Peter Van den Bosshe va, Verner Zdouchlarning fikriga ko'ra asosan uch guruhga; **“tug'ilib ko'payadigan tabiiy resurslarni saqlash” bilan bog'liq, tugaydigan tabiiy resurslarni saqlash bilan bog'liq va mahalliy ishlab chiqarish yoki iste'molni cheklash bilan birgalikda kuchga kiradi**¹⁰.

Mamlakatlar ma'lum tabiiy resurslarni, masalan, minerallar, o'rmonlar, yovvoyi tabiat yoki baliqchilikni saqlash choralari ko'rishlari mumkin. Ushbu chora-tadbirlar ushbu resurslarning barqarorligi va uzoq muddatli mavjudligini ta'minlashga qaratilgan.

Bu cheklovlar shunchaki tabiiy resurslardan foydalanishga moratoriy qo'yishni anglatmaydi, balki a'zo davlatlarning rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga muvofiq bunday ekspluatatsiyani tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi choralarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni davlatlar ushbu mahsulotlarni faqatgina cheklanmasdan, ularni nazorat qiladi va kerak bo'lsa ularning o'zini qayta tiklashiga va akopayishini ham taminlashga harakat qilishi lozim hisoblanadi.

Umuman olganda, ushbu toifadagi tovarlar yoki savdo obyektlariga turli hayvonlar, dengiz mahsulotlari va tabiiy osimliklar misol qilib keltiriladi. Ammo, bazi bir fikrlarga ko'ra ushbu toifadagi tovarlar tabiiy asosda ko'payishi va har qanday sharoitda o'zini o'zi tiklay olishini hisobga olib, ularni ushbu toifaga qo'shmaslik kerak degan fikrlar ham mavjud. Shunga qaramasdan, JST ushbu qarashlarga o'z xulosasini taqdim etgan. 1998-yilgi AQSh-Qisqichbaqa real muammoli vaziyatiga ko'ra, AQSh bir qancha davlatlardan qisqichbaqa import qilishni tqaiqlaydi va buni ushbu turdagi mahsulotlar noto'g'ri ovlanayotgani va yo'qolib ketishi mumkinligini asos qilib keltiradi. Bunga esa, Hindiston, Malayziya, Pokiston va Tailand kabi mamlakatlar, XX-modda **g bandi** faqatgina qayta tiklanadigan tabiiy resurslarni qamrab olishini takidlaydilar. Qisqichbaqalar esa ko'payuvchi jonzot bo'lib qayta tiklanishini da'vo qilishadi. Ammo, JST ushbu savollarga nisbatan o'z fikrini boshqacharoq tadbiq qiladi. Unga ko'ra, zamonaviy biologik tadqiqotlarga ko'ra, qayta tug'ish asosida ko'payuvchi hayvonlar yoki dengiz jonzotlari ham noqulay sharoitlarda yo'qolib

¹⁰ THE LAW AND POLICY OF THE WORLD TRADE ORGANIZATION. Text, Cases and Materials Peter Van den Bossche, Werner Zdouc. 1129.

ketishi havfi mavjudligi yuzasidan ularni ham XX-modda **g bandiga** kirishini ta’kidlaydi¹¹.

Ushbu holat yuzasidan va shunga o‘xshagan holatlarning oldini olish uchun tegishli sohada O‘zbekistonda ham tegishli qonunlar qabul qilingan. Jumladan, **Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 38-moddasida**; Favqulodda ekologiya vaziyati va ekologiya ofati mintaqalarida shu vaziyatni keltirib chiqargan ishlar to‘xtatib qo‘yiladi, atrof tabiiy muhitga zararli ta‘sir etuvchi faoliyat taqiqlanadi, tabiiy muhitni tiklash va sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari ko‘riladi¹². Ushbu qoidani kelib chiqadiki, O‘zbekistonda ham tabiiy muhitga zarar keltirayotgan harakatlar yoki tabiiy muhitga doir mavjudotlarga salbiy ko‘rsatayotgan harakatlar aniqlanadigan bo‘lsa, ushbu harakatlar taqiqlanishi mumkin va tabiiy muhitdagi o‘simliklar va jonzoqlarning tiklanishi yuzasidan harakatlar olib boriladi.

Yuqorida muhokama qilingan GATT 20-moddasi bo‘yicha yuzaga kelgan holatlarni va ularning JST huquqi doirasida yutuq va kamchilillar asosida O‘zbekiston qonunvchiligi bilan taqqoslagan holda muhokama qildik. Yuzaga kelayotgan kamchiliklar va potentsial kelajakdagi rivojlanishlarni hisobga olgan holda GATT 20-moddasini rivojlantirish va kamchiliklarini bartaraf etish uchun bir qancha takliflar berilishi va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Hozirgi rivojlanayotgan dunyoda havoning ifloslanishi natijasida global isish tezlashib, insonlar so‘g‘ligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ko‘mir va neft kabi yuqori darajada ifloslantiruvchi energiya manbalarining savdosiga cheklovlar joriy qilish zaruratga aylanib bormoqda. Masalan, GATT 20-moddasini kengaytirish orqali davlatlar karbonat angidrid isini kamaytirishga yoki iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashni maqsad qilgan tovarlarga bojxona tariflarini kamaytirish, aksincha zaharli gazlarni ko‘p chiqaradigan va ishlab chiqarishda ko‘p zararli moddalarni chiqaradigan tovarlarga bojxona bojlarini oshirishni maqsadda tutishi mumkin. Bu, Yevropa Ittifoqining **Karbon chegaralari bo‘yicha sozlanadigan mexanizm** (CBAM) dasturiga o‘xshash tartib-qoidalarni xalqaro savdo doirasida qo‘llashga ruxsat berishi mumkin. **CBAM** (Carbon Border Adjustment Mechanism) — bu **Yevropa Ittifoqi** tomonidan ishlab chiqilgan "karbon chegarasi to‘lovi mexanizmi". Bu tizim iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish uchun joriy qilinib, karbonat angidrid (CO₂) chiqindisi yuqori bo‘lgan mahsulotlarning Yevropa Ittifoqiga import qilinishida qo‘shimcha to‘lovlar orqali karbon isini kamaytirishga qaratilgan¹³. Jumladan, O‘zbekiston ham 2030-yilga borib, mamlakat hududidagi karbonat angidrid chiqaradigan issiqxonalar

¹¹ https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/cases_e/ds58_e.htm

¹² 754-XII-coH 09.12.1992. Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/-107115>

¹³ Carbon Border Adjustment Mechanism. https://taxation-customs.ec.europa.eu/carbon-border-adjustment-mechanism_en

bo'yicha global isish asosi bo'lgan issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirishni o'z oldiga maqsad qilgan¹⁴.

Shuningdek, hozirgi rivojlanayotgan zamonda sun'iy intellektning ahamiyati juda ham oshib bormoqda. Dunyo aholisi sun'iy intellektning manbalaridan faol foydalanib bormoqda. Bunday holatlarda sun'iy intellekt tomonidan foydalanuvchilarga cheklanmagan ma'lumotlarni taqdim etilishi mumkin. Bunday holatlarda esa davlatlar o'zining ichki qonunchiligiga asosan tovarlar yoki xizmatlar uchun cheklovlar kiritishi ham mumkin. Bunday holatlarni katta korporatsiyalarning ma'lum bir davlatning talablariga binoan maxsus shartlardagi mahsulotlarni ishlab chiqarish holatlari mavjud. Bunga misol qilib Apple kompaniyasining bir qancha davlatlarga bir turdagi telefonlarini xar hil variantlarda ishlab chiqarishini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu amaliyot bo'yicha davlatlar ham o'zlarining davlatchiligidan kelib chiqib yangi texnologiya hisoblangan sun'iy intellekt vositalari hisoblangan Chat GPT, Claudi AI va boshqa turdagi vositalarga cheklovlarni kiritishlari ham mumkin. Masalan, O'zbekiston qonunchiligiga asosan pornografiya mahsulotlarini saqlash, tarqatish taqiqlanadi¹⁵. Shunga asosan O'zbekiston sun'iy intellekt kompaniyalariga fuqarolar tomonidan pornografik mahsulotlar haqidagi fuqarolarning so'rovlariga javpb bermasligi va u haqida ma'lumot bermasligini talab qilishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli kompaniyalar bilan muzokaralar olib borish va ikki tomonlama murosaga kelish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida mulohazalardan kelib chiqqan holda, GATT 20-moddasini muhokama qilishga va xalqaro va milliy qonunchilik asosida tahlil qilishga harakat qilindi. Ushbu moddaning asosini va mazmunini yoritish maqsadida turli xil real misollar asosida JST qonunchiligini O'zbekiston respublikasi qonunchiligi bilan solishtirish asosida muhokama qilishga harakat qilindi. Shuningdek kamchiliklar ham tegishli bo'limlar yuzasidan muhokama qilindi va O'zbekistonning qonunchiligida bir qancha mummao va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Shuningdek bu kabi muammolarni hal qilish uchun tegishli takliflar keltirildi. Ushbu tahliliy ishda faqatgina hozirgi va o'tmishdagi muammo va vaziyatlar o'rganilmasdan, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy voqealar va xulosalar beriladi. **Xulosa qilib aytganda**, tovarlar savdosidagi istisnolar sohasidagi muammo va kamchiliklar tegishli hujjatalr va olimlarning fikrlari asosida muhokama qilindi va ularga ehtimoliy yechimlar taklif qilindi. Kelgusidagi

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 130-modda

ehtimoliy voqea hodisalar ham muhokama qilindi. Ushbu sohadagi O‘zbekistonning holati va kamchilikariga alohida e’tibor qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. GENERAL AGREEMENT ON TARIFFS AND TRADE GENERAL AGREEMENT ON TRADE IN SERVICES O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 130-modda 754-XII-coh 09.12.1992. Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida
2. A global alliance against forced labour REPORT OF THE DIRECTOR-GENERAL Global Report under the Follow-up to the ILO Declaration on Fundamental Principles and Rights at Work 2005 INTERNATIONAL LABOUR CONFERENCE 93rd Session 2005
3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI. MUALLIFLAR JAMOASI XALQARO IQTISODIY HUQUQ DARSLIK. TOSHKENT – 2019-186 bet.
4. JEREMY C. MARWELL* 2006 may. 804. New York university law review. 81 N.Y.U. L. Rev. 802 (2006). Trade and Morality: The WTO Public Morals Exception after Gambling
5. THE LAW AND POLICY OF THE WORLD TRADE ORGANIZATION. Text, Cases and Materials Peter Van den Bossche, Werner Zdouc. 1109.
6. Journal of Arts & Humanities. How Could Prison Products Come into the International Market? Analysis of the Consistency between WTO and ILO Rules Xixue Shang , Guido Van Limberghen 72.
7. International Labour Organization. From Protocol to Practice: A Bridge to Global Action on Forced Labour (Bridge Project)
8. THE LAW AND POLICY OF THE WORLD TRADE ORGANIZATION. Text, Cases and Materials Peter Van den Bossche, **Werner Zdouc. 1129.**

Foydalanilgan internet manbalar:

1. https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/cases_e/ds332_e.htm
2. <https://lex.uz/docs/-2876354>
3. https://taxation-customs.ec.europa.eu/carbon-border-adjustment-mechanism_en
4. <https://smarcitysweden.com/focus-areas/energy/waste-to-energy/#:~:text=Incineration%20is%20a%20method%20ideally,waste%20than%20any%20other%20country.>
5. <https://www.loc.gov/item/global-legal-monitor/2015-10-06/russia-ban-introduced-on-use-of-gmos-in-food/#:~:text=The%20draft%20law%20prohibits%20the,of%20GMOs%20as%20a%20misdemeanor.>
6. <https://heinonline.org/HOL/LandingPage?handle=hein.journals/nylr81&div=30&id=&page=>